

Sadinov Ma'rufjon Normo'minovich

SamDCHTI o'qituvchisi

Jonaliyeva Muxlisa Sherali qizi

Samdchti talabasi

Annotatsiya: *Biz o'tmishi, tarixi juda ham boy bo'lgan bir diyor farzandlarimizki, Vatanimizning tarixini va tarixiy boyliklarini hamda faxrlansak arziydigan obidalarini o'rganish bizning Vatan oldidagi farzandlik burchlarimizning eng asosiylaridandir. Shu jumladan, Sharq Gavhari bo'lmish Samarqandning ko'zgusi bo'lgan Registon tarixini o'rganish va bilishdir. Uning tarixini o'rganishda o'sha davrdagi allomalar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, obidalarning qurilish sabablari, ishtirok etgan shaxslar va ular o'sha davrdagi faoliyati kabi jihatlarni o'rganish va tahlil qilishga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *Registon ansambli, Ulug'bek madrasasi, Tillakori madrasasi, Sherdor madrasasi, Yalangto'shbiy otaliq.*

Annotation: *We are children of country with a very rich past and history. Studying the history and historical treasures and proud monuments of our country is one of the main filial duties of our country. One of these is learning and knowing the history of Registan, which is the mirror of Samarkand, the jewel of the East. In the study of its history, attention is paid to the study and analysis of aspects such a scientists, socio-economic life, the reasons for the creation of monuments, their names and their activities at that time.*

Key words: *Registan square, Ulug'bek madrasah, Tillakori madrasah, Sherdor madrasah, Yalangtushbiy otaliq.*

Аннотация: *мы дети страны с очены богатым прошлым и историе. Изучение истории, исторических сокровищ и гордых памятников нашей страны – одна из главных сыновних обязанностей нашей страны. Одним из них является изучение и знание истории Регистана, зеркала Самарканда, жемчужины Востока. При изучении его истории внимание уделяется изучению и анализу таких аспектов, как учёные, социально-экономическая жизнь, причины создания, их деятельность в то время.*

Ключевые слова: *Плошад Регистан, Медресе, Улугбек Медресе, Тиллакори Медресе, Шердар Ялангтушбий оталик.*

Registon ansambli jozibador, serhasham, o'z zamonasining eng mukammal, hozirgi davr muhandislarini ham lol qoldiradigan 3 ta obidadan iborat bo'lib, ular: Ulug'bek madrasasi, Tillakori madrasasi va sherdor madrasalaridir. "Registon maydoni – O'rta Osiyo javohiri deb ham ataladi".³ "Registon" so'zi "qumli joy"

³ <https://ilmlar.uz>

degan ma'noni anglatadi. Madrasalarning eshiklariga Qur'on oyatlari va suratlari bitilgan.

“Shohruh Mirzo otasi Amir Temur o'limidan 5 yil keyin Hirotdan Samarqandga kelib, Mironshohning o'g'li Sulton Xalilni Samarqand taxtidan tushirib, o'z o'g'li Ulug'bekni o'tqazadi. Ulug'bek xonligidan 16 yil so'ng Ulug'bek madrasasini soldiradi. Ushbu madrasa shahar o'rtasida (arki oliyga yaqin bir o'rindadir)”.⁴ Ulug'bek madrasasi XV asrning eng nufuzli ta'lim dargohlaridan biri bo'lgan. Bu madrasa Registon ansamblining g'arbiy qismida joylashgan. Madrasaning loyiha muallifi amir Shohruh Kavom-ad-din Sheroziy deb e'tirof etiladi. Madrasada turli sohalar bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan.

Tillakori madrasasi 1646-yilda Yalangto'shbiy Bahodir buyrug'i bilan qurilgan. “XV asrda kuchli zilzila natijasida madrasa binosi vayron bo'lgan. Ayniqsa kirish qismi shikastlangan”.⁵

Sherdor madrasasi Ulug'bek madrasasining qarshisida bo'lib, Yalangto'shbiy otaliq tomonidan qurdirilgan. “U shunday madrasakim, buyukligidan hayol idishi ichiga sig'mas, kattaligidan tavsif aytishga to'g'ri kelmas, baland toqi falak ravoqidek, chunonchi oftob shaklini asad burjig'a yaqin qilib, peshtoqiga surat solib, har ikki sher ohu oladigan tarzda ko'rsatilgan”.⁶ Bu obida qurilishi uchun Ulug'bek xonaqohi qulatiladi. XX asrning 20-yillarida sovet hukumatining farmoni bilan dars berish to'xtatiladi.

Yurtimizda ko'plab obidalar singari Registon maydoni ham 2001-yilda YUNESKOga kiritilgan. Hozirgi kunda aynan shu yerda ko'plab festevallar, milliy bayramlar, tadbirlar o'tkazilishining boisi shundaki, yosh avlodni tariximizga yanada qiziqtirish, ko'proq bilimlarni egallashlari uchundir. Registon maydoni turistik markazga aylantirilgan bo'lib, dunyo sayyohlarining unga qiziqishi ortib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytamiz joizki, Registonning tarixi juda ham boy bo'lib, u haqida qancha gapirsak ham kamlik qiladi. Chunki bunchalik boy tarixga ega bo'lmaganida edi, jahon hamjamiyati Registonni yuksak hurmat bilan e'tirof etmasdilar. Buyuk allomalarimiz nafaqat Registon, balki yurtimizdagi boshqa me'moriy obidalarimiz ham jahonga mashhurdir. Registon maydonida o'tkaziladigan “Sharq taronalari” featevali ham maydonning qanchalik obro' va e'tiborga ega ekanligini ko'rsatadi. Registonning tarixini o'rganish mobaynida biz to'g'ridan to'g'ri allomalarimizning hayoti, tarixi bilan tanishishimiz, o'rganishimiz lozim bo'ladi. Bu jarayon esa bizga tarixga oid bilimlarimizni yanada kengayishiga yordam beribgina qolmay, tarixga bo'lgan qiziqishlarimizni ochilmagan qirralarini ochishi ham mumkin. Abu Toxirxo'ja Samarqandiyning “Samaruya” asarida Registonga oid ko'plab oltin ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, yuqorida aytib o'tganimizdek buyuk allomalarimiz to'g'risida ham ma'lumotlar muhrlangan. “Samaruya” asarida madrasalarning tarixi keltirilgan bo'lsa, “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da esa ularning to'liq

⁴ Abu Toxirxo'ja Samarqandiy. Samaruya. -Toshkent, 1991. B25

⁵ <https://uz.m.wikipedia.org>

⁶ Abu Toxirxo'ja Samarqandiy. Samaruya. -Toshkent, 1991. B27

ma'lumotlari bayon etilgan. Madrasalarsa tushirilgan naqshlarning har birida o'ziga xos ma'no va mazmun bor bo'lib, haligacha izlanishlar olib boriladi. Bu shundan dalolat beradiki, bizning ajdodlarimiz nihoyatda bilimli, salohiyatli, butun jahonni lol qoldira olgan buyuk shaxsiyat egalari bo'lgan. O'sha davrda zamonaviy asbob-uskunalar bo'lmagan bir vaqtda Registonning o'ta mukammal qurilishi jahon hamjamiyatini haligacga hayratda qoldiradi. Biz bunday tarixga ega ekanligimizdan faqatgina faxrlanib qolmay, uni o'rganib jahonga yanada tanitish biz uchun ma'suliyatli burchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://ilmlar.uz>
2. Abu Toxirxo'ja Samarqandiy. Samariya.- Toshkent, 1991. B 25
3. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. Abu Toxirxo'ja Samarqandiy. Samariya.- Toshkent. 1991. B 27